



O'ZBEK TILIDA YANGI PAYDO BO'LAYOTGAN SO'ZLAR (NEOLOGIZMLAR) VA ULARNING MANBALARI

O'ROLOVA HUSNIYA MURODALI QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi

Email:orolovahusniya2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek tilida yangi paydo bo'layotgan so'zlar ya'ni ologizmlar va ularning asosiy manbalari tahlil qilinadi. Xususan, texnologiya, siyosat hamda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tilimizga kirib kelayotgan yangi so'z va iboralarning shakllanish jarayoni, semantik xususiyatlari va qo'llanish doirasi yoritib beriladi. Shuningdek, neologizmlarning o'zbek adabiy tiligap moslashuvi, ularning nutqdagi o'rni va til taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: internet, neologizmlar, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalar, web saytlar, siyosat.

Kirish: "Til millat ko'zgusi"-deganlaridek har bir til shu mamlakatning madaniyatini, tarixini o'zida aks ettiradi. Til ma'lum bir vaqt davomida sayqallanib, ko'payib boradi. Shu bilan birga til jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lib undagi barcha o'zgarishlar ijtimoiy hayotdagi yangilanishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyat taraqqiy etar ekan fan-texnika, siyosiy tizim axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanadi va bu jarayon til lug'at tarkibining boyishiga olib keladi. Ana shunday jaroyonda neologizmlar paydo bo'ladi. Hozirgi globallashuv davrida o'zbek tilida ham yangi so'zlar tez sur'atlarda paydo bo'lib, nutq jarayoniga kirib bormoqda. Neologizm (yunoncha neo-yangi, logos-so'z) tilga nisbatan yangi bo'lgan, avval mavjud bo'lmagan tushuncha va hodisalarni ifodalash uchun yaratilgan yoki o'zlashgan so'z va iboralarni anglatadi. Neologizmlar ma'lum vaqt davomida yangilik sifatida qabul qilinadi va keyinchalik umumiste'molga kirib tilning doimiy lug'at birligiga aylanishi mumkin. Misol sifatida telegram, hashtag, platforma, ilova kabi so'zlarni aytishimiz mumkin. Bu so'zlarning aksariyati xalqaro terminlar bo'lib ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri yoki tarjima yo'li bilan tilimizga kirib kelgan. Internet va ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy neologizmlarning eng tezkor manbai hisoblanadi. Bu so'zlar asosan yoshlar nutqida va so'zlashuv uslubida keng qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan internet so'zlari blogger, story, post, like, repost, follower, follow hisoblanadi. Bu so'zlar zamonaviy dunyoni ko'rsatib beradi. Internet neologizmlarining muhim



xususiyati shundaki, ularning ayrimlari qisqa vaqt ichida adabiy til me'yorlariga moslashib, rasmiy nutqda ham qo'llanila boshlaydi. Neologizmlar til taraqqiyotining tabiiy natijasi bo'lsa-da, ularning me'yordan ortiqcha va nazoratsiz qo'llanilishi ayrim salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Neologizmlarning til va nutqqa ko'rsatadigan asosiy salbiy oqibatlaridan biri adabiy til me'yorlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Chet tillardan kirib kelayotgan neologizmlar ko'pincha talaffuz, imlo va grammatik me'yorlarga moslashmagan holda qo'llaniladi. Bu holat, albatta, adabiy til me'yorlarining zaiflashishiga olib keladi. So'zlashuv nutqida yoshlar "like bosmoq", "post qo'ymoq", "patpiska tashamoq" kabi so'zlardan keng foydalanadi. Bu iboralarning o'rniga xabarni yoqtirish, hikoya joylamoq, obuna bo'lmoq kabi birliklarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari neologizmlar paydo bo'lishi natijasida o'zbek milliy so'zlari iste'moldan chiqishini kuzatishimiz mumkin. Masalan obunachi, xabar so'zlari o'rnida "follower", "post" so'zlari ustun qo'llaniladi. Haddan tashqari ko'p yangi va xorijiy so'zlarning ishlatilishi keksalar va tilga yangi o'rganayotganlar uchun nutqni tushunarsiz qilib qo'yadi. Bu esa avlodlararo muloqotda uzilish keltirib chiqarishi mumkin. Shu maqsadda so'zlarni o'rinli qo'llash adabiy til me'yorlarini saqlab qolish uchun muhimdir. Bundan tashqari, neologizmlarning o'zbek tiliga tez va ko'pincha nazoratsiz kirib kelishi natijasida ularning yozilishi va talaffuzida yagona me'yor shakllanmay qolmoqda. Ayniqsa, chet tillardan, asosan ingliz tilidan o'zlashayotgan so'zlar turli manbalarda turlicha yozilishi va aytilishi bilan ajralib turadi. Bu holat til me'yorlarida beqarorlikni yuzaga keltirib, nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab yangi so'zlar avval xorijiy shaklda qo'llanadi, keyinchalik esa o'zbek tili fonetik va imlo qoidalariga moslashtiriladi. Biroq bu jarayon bir maromda kechmagani sababli bir so'zning bir necha yozilish variantlari yuzaga keladi. Masalan, onlayn va online, blogger va blogger, computer va kompyuter shakllari bir vaqtning o'zida matbuotda, internet sahifalarida hamda rasmiy hujjatlarda uchraydi. Natijada qaysi shakl to'g'ri ekani borasida noaniqlik paydo bo'ladi. Bunday beqarorlik, avvalo, o'quvchilar va talabalar uchun imlo xatolarining ko'payishiga olib keladi, shuningdek, rasmiy va ilmiy matnlarning bir xilda yozilishini qiyinlashtiradi. Talaffuzda ham turli variantlarning mavjudligi og'zaki nutqda chalkashlik tug'diradi. Shu sababli yangi so'zlarni o'zbek tilining imlo va fonetik me'yorlariga mos holda tezkor ravishda tartibga solish, lug'atlar va rasmiy manbalar orqali yagona shaklni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda o'zbek tilida neologizmlarning paydo bo'lishi jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika yutuqlari, siyosiy islohotlar hamda internet va ommaviy axborot vositalari ta'siri bilan bevosita bog'liqdir. Yangi so'zlar



tilning lugʻat boyligini kengaytirib, zamonaviy tushunchalarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, neologizmlarning meʼyorida ortiqcha va tartibsiz qoʻllanilishi adabiy til meʼyorlarining buzilishiga, milliy soʻzlarning isteʼmoldan chiqishiga va nutqning tushunarligi pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, neologizmlarni oʻzbek tilining ichki qonuniyatlari asosida tartibga solish, ularni adabiy til meʼyorlariga moslashtirish va mavjud muqobil soʻzlardan oqilona foydalanish zarur. Bundan tashqari, yangi soʻzlarni ommaviy axborot vositalari va taʼlim tizimi orqali toʻgʻri targʻib qilish muhim hisoblanadi. Tilshunos olimlarning ilmiy tavsiyalari asosida neologizmlarni baholash va meʼyorlashtirish til barqarorligini taʼminlaydi. Neologizmlarga nisbatan ongli yondashuv yosh avlodda nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada oʻzbek tilining zamonaviy rivoji bilan birga uning milliy qiyofasi ham asrab qolinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A. Oʻzbek tili leksikasi va frazeologiyasi. — Toshkent, 2015. 60-bet
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2007. 125-bet
3. Karimov I. A. Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Maʼnaviyat, 2008. 90-bet
4. Mirziyoyev Sh. M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. — Toshkent: Oʻzbekiston, 2021. 25-bet
5. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. — Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 5 jild.
6. Yoʻldoshev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili leksikologiyasi. — Toshkent: Fan, 2010. 45-bet
7. Oʻzbek tilining imlo qoidalari. — Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2020. 10-bet.